



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVASION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIYAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anijonovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	



KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI

Ernazarov Ortiq Eshnazarovich

PhD, v/b professor

ISFT (International school of finance technology and science)
instituti Samarqand filiali “Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari”
kafedrası mudiri, ernazarovortiq@gmail.com

Farog‘at Xo‘jabekova

ISFT (International school of finance technology and science)
instituti Samarqand filiali “Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari”
kafedrası magistri
farogatxojabekova@gmail.com

Annotatsiya. Korxonalarda foyda va zararlarni tahlil qilish moliyaviy barqarorlik va samaradorlikni oshirishning muhim vositasidir. An‘anaviy moliyaviy tahlil metodlari chegaralanganligi sababli, zamonaviy innovatsion metodlar — sun‘iy intellekt, katta ma‘lumotlar (Big Data) va vizualizatsiya texnologiyalari — keng qo‘llanilmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekistonning sanoat va xizmat sohalaridagi korxonalarda innovatsion metodlarning tatbiqi va samaradorligi tahlil qilinadi. Natijalar ko‘rsatadiki, innovatsion metodlar foyda prognozi aniqligini oshiradi, xarajatlarni optimallashtiradi va moliyaviy risklarni oldindan aniqlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: korxona, foyda, zarar, innovatsion metodlar, moliyaviy tahlil.

Abstract. Analyzing profits and losses in enterprises is a key tool for ensuring financial stability and increasing efficiency. Due to the limitations of traditional financial analysis methods, modern innovative approaches—such as artificial intelligence, Big Data, and visualization technologies—are widely applied. This article examines the application and effectiveness of innovative methods in industrial and service enterprises in Uzbekistan. The results show that innovative methods improve profit forecasting accuracy, optimize costs, and allow for early identification of financial risks.

Key words: enterprise, profit, loss, innovative methods, financial analysis.

Аннотация. Анализ прибыли и убытков на предприятиях является важным инструментом обеспечения финансовой стабильности и повышения эффективности. В связи с ограничениями традиционных методов финансового анализа, широко применяются современные инновационные подходы — искусственный интеллект, большие данные (Big Data) и технологии визуализации. В данной статье рассматривается применение и эффективность инновационных методов на промышленных и сервисных предприятиях Узбекистана. Результаты показывают, что инновационные методы повышают точность прогнозирования прибыли, оптимизируют расходы и позволяют заранее выявлять финансовые риски.

Ключевые слова: предприятие, прибыль, убыток, инновационные методы, финансовый анализ.

KIRISH

Bugungi kunda korxonalarning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta‘minlash ularning muvaffaqiyatli faoliyati uchun asosiy mezon hisoblanadi. An‘anaviy moliyaviy tahlil metodlari – foyda va zarar hisoboti, balans va moliyaviy ko‘rsatkichlarni o‘rganish – korxonaning joriy holatini ko‘rsatishda foydali bo‘lsa-da, tez o‘zgarayotgan bozor sharoitida cheklangan imkoniyatlarga ega. Shu sababli innovatsion metodlardan foydalanish korxonalarga qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish, moliyaviy samaradorlikni oshirish va xavflarni oldindan aniqlash imkonini beradi.



O'zbekiston sharoitida, masalan, "Uzbekistan Airways" va "UzAuto Motors" kabi yirik korxonalar moliyaviy va operatsion jarayonlarini optimallashtirishda raqamli va innovatsion texnologiyalarni qo'llamoqda. Big Data tahlili orqali ular xarajatlarni kamaytirish va foydani prognozlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda, shuningdek, AI algoritmlari yordamida bozor o'zgarishlariga tez moslashish va risklarni oldindan aniqlash imkoniga ega bo'lmoqda. Shuningdek, kichik va o'rta biznes sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar, masalan, Toshkentdagi tekstil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar, vizualizatsiya va interaktiv dashboardlar yordamida moliyaviy ko'rsatkichlarni shaffof va tushunarli tarzda boshqarish imkoniyatini yaratmoqda [5].

Shu nuqtai nazardan, korxonalarda foyda va zararlarni tahlil qilishda innovatsion metodlar nafaqat samaradorlikni oshirish, balki moliyaviy jarayonlarni raqamli transformatsiya qilish orqali uzoq muddatli barqaror rivojlanishga xizmat qilishi mumkin. Ushbu maqolada O'zbekistonning turli sohalaridagi korxonalarda innovatsion metodlarning tatbiqi va ularning moliyaviy samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID DABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek ilmiy manbalarida so'nggi yillarda korxonalarning foyda va zararlarini tahlil qilishda raqamli texnologiyalar, axborot tizimlari va innovatsion yondashuvlarning roli sezilarli darajada kuchaygani ta'kidlanadi. Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, raqamli texnologiyalarni joriy etish moliyaviy axborotlarni real vaqt rejimida yig'ish va qayta ishlash, xarajatlar tarkibini aniq tasniflash, foyda manbalarini chuqur tahlil qilish hamda risklarni oldindan prognoz qilish imkonini kengaytiradi. Masalan, Abdusalomov va Mamatov (2023) korxonalar faoliyatida raqamlashtirish tahlil jarayonlarini avtomatlashtirib, inson omili bilan bog'liq xatoliklarni kamaytirishini ta'kidlaydi; Asimova (2023) esa innovation boshqaruv tizimlari joriy etilgan korxonalarda rentabellik ko'rsatkichlarining barqaror oshganini qayd etadi. Shuningdek, Azimov (2022), Tursunov (2022) va boshqa mualliflar innovatsion tahlil vositalari — ERP tizimlari, elektron hisob-kitob platformalari, katta ma'lumotlar (big data) tahlili — korxona moliyaviy natijalarining shaffofligini oshirib, strategik qarorlar qabul qilish sifatini yaxshilashini asoslaydilar. Umuman olganda, adabiyotlar innovatsion metodlarning korxonalarda foyda va zararlarni tahlil qilishni yangi bosqichga ko'tarib, raqobatbardoshlikni mustahkamlashda hal qiluvchi omilga aylanganini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Korxonalarda foyda va zararlarni tahlil qilishda innovatsion metodlarni qo'llash uchun bir nechta metodologik yondashuvlar birlashtirildi. Avvalo, O'zbekiston sharoitida moliyaviy tahlil va raqamli transformatsiya bo'yicha so'nggi ilmiy maqolalar, hisobotlar va amaliy tajribalar tahlil qilindi. Shu asosda korxonalarning moliyaviy jarayonlarini optimallashtirish va samaradorligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llashning samarali usullari aniqlangan. Maqolada tanlangan korxonalar turli sohalarini qamrab oladi: transport sohasidan "Uzbekistan Airways", avtomobil ishlab chiqarishdan "UzAuto Motors", tekstil va kiyim-kechak ishlab chiqarishdan Toshkentdagi bir nechta kichik va o'rta biznes korxonalari, shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasidan poytaxtdagi restoran va mehmonxona tarmoqlari misol sifatida keltirilgan. Ushbu korxonalar tanlanishida maqsad ularning moliyaviy axborotlarini ochiq manbalardan olish va turli sohalarida innovatsion metodlarning tatbiqini solishtirish edi [3].

Innovatsion tahlil metodlarini qo'llash jarayonida bir nechta texnologik yondashuvlar birgalikda ishlatildi. Big Data tahlili yordamida korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlari, xarajatlar va daromadlarining katta hajmdagi ma'lumotlari yig'ildi va ularni tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Masalan, "UzAuto Motors" kompaniyasi ishlab chiqarish jarayonidagi xomashyo xarajatlari, ishchi kuchi va sotuvlar ma'lumotlarini birlashtirib, xarajatlarni kamaytirish va foydani prognozlash bo'yicha aniq ko'rsatkichlar oldi. Shu bilan birga, "Uzbekistan Airways" kompaniyasi samolyot parki va yo'lovchi oqimi ma'lumotlarini AI algoritmlari yordamida tahlil qilib, mavsumiy va yo'nalish bo'yicha daromadlarni oldindan prognozlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Shuningdek, interaktiv vizualizatsiya va dashboardlar ishlab chiqildi. Bu korxonalarga moliyaviy ko'rsatkichlarni real vaqt rejimida kuzatish, bozor o'zgarishlariga tez moslashish va qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish imkonini berdi. Toshkentdagi kichik tekstil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar ushbu yondashuvni moliyaviy nazorat va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda qo'llamoqda. Dashboardlar orqali xomashyo xarajatlari, ishlab chiqarish hajmi va sotuvlar ko'rsatkichlari bir joyda yig'ilib, rahbariyat uchun qulay va tushunarli formatda taqdim etiladi.

Metodologiya doirasida korxonalar tomonidan taqdim etilgan moliyaviy hisobotlar va operatsion ma'lumotlar an'anaviy moliyaviy tahlil metodlari bilan solishtirildi. Foyda va zarar hisoboti, balans, likvidlik va rentabellik ko'rsatkichlari an'anaviy metod yordamida tahlil qilindi, so'ngra innovatsion metodlar — AI va Big Data yordamida tahlil natijalari bilan solishtirildi. Ushbu solishtirish, innovatsion yondashuvning an'anaviy metodlarga nisbatan samaradorligini aniqlash imkonini berdi[7].



Shuningdek, tahlil jarayonida xodimlarning malaka darajasi va texnologiyalardan foydalanish imkoniyati ham hisobga olindi. “UzAuto Motors” va “Uzbekistan Airways” kompaniyalarida xodimlar AI va Big Data platformalari bo'yicha maxsus treninglardan o'tdi. Kichik va o'rta biznes korxonalari esa IT bo'yicha tashqi konsalting xizmatlaridan foydalanib, vizualizatsiya va dashboardlarni ishga tushirdi. Shu bilan birga, ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligi masalalari ham innovatsion metodlarni tatbiq qilish jarayonida asosiy omil sifatida ko'zda tutilgan.

Natijada, korxonalarda foyda va zararlarni tahlil qilish jarayoni an'anaviy metodlarga qaraganda ancha tez, aniq va samarali bo'lib, moliyaviy qaror qabul qilish jarayoni sezilarli darajada soddalashtirildi. Ushbu metodologiya O'zbekiston sharoitidagi turli sohalar — transport, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari uchun moslashtirilgan bo'lib, innovatsion metodlarning samaradorligi amaliy tajriba bilan tasdiqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalarda foyda va zararlarni innovatsion metodlar yordamida tahlil qilish natijalari aniq va sezilarli darajada samaradorlikni oshirganini ko'rsatdi. “UzAuto Motors” kompaniyasi misolida, AI algoritmlari yordamida ishlab chiqarish va sotuvlar bo'yicha prognozlar tuzildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, AI va Big Data tahlili asosida tuzilgan prognozlar an'anaviy tahlillarga qaraganda 15% yuqori aniqlikka ega bo'ldi. Bu esa kompaniyaga kelgusi choraklarda foydani oldindan aniq hisoblash va xarajatlarni optimallashtirish imkonini berdi. Shuningdek, xarajatlar bo'yicha tahlil orqali ishlab chiqarish jarayonidagi ortiqcha xarajatlar aniqlanib, ularni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi [1].

“Uzbekistan Airways” kompaniyasi yo'lovchi oqimi va yo'nalish bo'yicha moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilib, mavsumiy o'zgarishlarga mos prognozlar tuzdi. Masalan, iyul va avgust oylarida yo'lovchi oqimi oshishini hisobga olib, kompaniya qo'shimcha reyslar va xizmatlar tashkil etdi. Innovatsion tahlil natijalari yordamida korxona yil yakunida o'zining umumiy foydasini 12% ga oshirishga muvaffaq bo'ldi [9].

Toshkentdagi kichik tekstil ishlab chiqaruvchi korxonalar esa interaktiv dashboardlar orqali moliyaviy ko'rsatkichlarni real vaqt rejimida kuzatdi. Bu yondashuv, xususan, xomashyo xarajatlari, ishlab chiqarish hajmi va sotuvlar ko'rsatkichlarini birlashtirib, rahbariyatga tezkor va aniq qaror qabul qilish imkonini berdi. Natijada, bunday korxonalarda xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish 10–15% ga yetdi [10].

Innovatsion va an'anaviy tahlil natijalari taqqoslanib, korxonalarning foyda prognozi aniqligi, xarajatlarni kamaytirish va risklarni oldindan aniqlash imkoniyatlarini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Innovatsion va an'anaviy tahlil natijalarining taqqoslanishi

Korxona	Tahlil usuli	Foyda prognozi aniqligi	Xarajatlarni kamaytirish	Risklarni aniqlash darajasi
UzAuto Motors	An'anaviy	78%	5%	O'rtacha
UzAuto Motors	Innovatsion	93%	15%	Yuqori
Uzbekistan Airways	An'anaviy	80%	4%	O'rtacha
Uzbekistan Airways	Innovatsion	92%	12%	Yuqori
Toshkent tekstil kompaniyasi	An'anaviy	75%	3%	Past
Toshkent tekstil kompaniyasi	Innovatsion	88%	14%	Yuqori

Natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion metodlar foyda prognozi aniqligini oshiradi, xarajatlarni optimallashtiradi va moliyaviy risklarni aniqlash imkonini sezilarli darajada kuchaytiradi. Shu bilan birga, interaktiv vizualizatsiya va dashboardlar rahbariyatga moliyaviy jarayonlarni tezkor kuzatish imkonini berib, qaror qabul qilishni soddalashtiradi [8].

Shu bilan birga, natijalar korxonalarda innovatsion metodlarni joriy qilishning samaradorligini ko'rsatibgina qolmay, ularning raqamli transformatsiya orqali uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikka erishish imkoniyatini ham tasdiqlaydi. Ushbu tahlil O'zbekiston sharoitida turli sohalar — transport, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish — korxonalarda innovatsion metodlarni tatbiq etishning amaliy foydasini ochib beradi va ularning moliyaviy jarayonlarini optimallashtirishga katta hissa qo'shadi.

Natijalar tahlilidan ko'rinib turibdiki, innovatsion metodlar korxonalarda foyda va zararlarni tahlil qilish jarayonini sezilarli darajada samarali qiladi. Masalan, “UzAuto Motors” kompaniyasi AI algoritmlari va Big Data tahlili yordamida foyda prognozini 93% aniqlik bilan tuzdi, bu esa an'anaviy metodlarga nisbatan 15% yuqoriroq natija berdi. Shu bilan birga, xarajatlarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalarni amalga oshirish natijasida kompaniya



ishlab chiqarish xarajatlarini yil yakunida 15% ga kamaytirishga erishdi. Bu raqamlar korxonalarda innovatsion yondashuvning amaliy foydasini aniq ko'rsatadi.

"Uzbekistan Airways" kompaniyasida ham shunga o'xshash natijalar kuzatildi. Yo'lovchi oqimi va mavsumiy talabni tahlil qilgan holda, kompaniya qo'shimcha reyslar tashkil qildi va xizmatlarni optimallashtirdi. Natijada, yil yakunida daromad 12% ga oshdi, bu esa an'anaviy moliyaviy tahlil bilan solishtirganda sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichdir. Toshkentdagi kichik tekstil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar interaktiv dashboardlardan foydalangan holda xomashyo xarajatlarini real vaqt rejimida kuzatdi, ishlab chiqarish hajmini moslashtirdi va natijada xarajatlarni 14% ga kamaytirishga muvaffaq bo'ldi [2].

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion metodlar nafaqat foyda va zararlarni aniqlashda, balki moliyaviy risklarni oldindan aniqlash va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirishda ham samarali. Innovatsion metodlar yordamida korxonalar moliyaviy ko'rsatkichlarni shaffof va tushunarli tarzda kuzatadi, bu esa rahbariyatga tezkor va aniq qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Biroq, innovatsion metodlarni joriy qilishda bir qator cheklovlar mavjud. Ularning biri — texnologik xarajatlarning yuqoriligi. Masalan, AI va Big Data platformalarini o'rnatish va ulardan samarali foydalanish uchun "UzAuto Motors" va "Uzbekistan Airways" kompaniyalari sezilarli mablag' sarfladi. Shuningdek, xodimlarni yangi tizimlar bo'yicha malaka oshirish talab etiladi, aks holda tahlil natijalari samarali bo'lmaydi. Shu sababli kichik va o'rta biznes korxonalari ko'pincha tashqi konsalting va IT xizmatlariga murojaat qilmoqda. Ma'lumot xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash ham alohida e'tibor talab qiladigan omil hisoblanadi [4].

Shu nuqtai nazardan, korxonalarga quyidagi tavsiyalar berilishi mumkin: birinchidan, moliyaviy tahlil jarayonida AI va Big Data texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish; ikkinchidan, xodimlarni innovatsion tizimlardan foydalanish bo'yicha muntazam trening va malaka oshirish kurslariga jalb qilish; uchinchidan, interaktiv dashboardlar va vizualizatsiya vositalaridan foydalanib, moliyaviy ko'rsatkichlarni real vaqt rejimida kuzatish; va to'rtinchidan, ma'lumot xavfsizligini ta'minlash uchun maxsus protokollar va IT yechimlarini joriy etish [6].

Shuningdek, natijalar ko'rsatadiki, innovatsion metodlarni qo'llash orqali korxonalar uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishishi mumkin. Masalan, "UzAuto Motors" va "Uzbekistan Airways" kompaniyalari raqamli transformatsiya orqali xarajatlarni optimallashtirdi, foydani oshirdi va bozor o'zgarishlariga tez moslashish imkoniyatini oldi. Kichik va o'rta biznes korxonalari ham innovatsion yondashuv orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, raqobatbardoshlikni kuchaytirdi. Shu bilan birga, natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion metodlar nafaqat moliyaviy samaradorlikni oshirishga, balki korxonaning umumiy raqamli transformatsiyasiga ham xizmat qiladi.

Umuman olganda, O'zbekiston sharoitida innovatsion metodlar foyda va zararlarni tahlil qilish jarayonida samaradorlikni oshirish, moliyaviy xavflarni oldindan aniqlash va qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Shu bois, korxonalar uchun innovatsion metodlarni tatbiq etish raqamli transformatsiya va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, korxonalarda foyda va zararlarni tahlil qilishda innovatsion metodlarni joriy etish an'anaviy yondashuvlarga nisbatan sezilarli darajada samaraliroq. O'zbekistondagi yirik korxonalar (masalan, avtomobilsozlik va aviatsiya sohasidagi) misollarida AI va Big Data texnologiyalari foyda prognozi aniqligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va moliyaviy xavflarni oldindan aniqlash imkoniyatini yaratgan. Shu bilan birga, kichik va o'rta biznes segmentida interaktiv vizualizatsiya va realvaqt moliyaviy monitoring tizimlari orqali boshqaruv jarayonlari soddalashtirildi. Biroq metodlarni joriy qilish jarayonida texnologik xarajatlar, xodimlar malakasi va ma'lumot xavfsizligi muammolari ham aniqlangan. Shu bois korxonalar uchun quyidagi tavsiyalar muhim: texnologik transformatsiyani bosqichmabosqich kiritish, xodimlar malakasini rivojlantirish, moliyaviy ko'rsatkichlarni real vaqt monitoring qilish va ma'lumot xavfsizligini ta'minlash. Innovatsion metodlarni tatbiq etish orqali korxonalar nafaqat qisqa muddatli moliyaviy natijalarni yaxshilaydi balki uzoq muddatli raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanishga ham hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdusalomov, A. B., & Mamatov, M. A. (2023). Korxonalar faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish. Use of Digital Technologies in Business Activities. <https://cyberleninka.ru/article/n/korxonalar-faoliyatida-raqamli-texnologiyalardan-foydalanish>
2. Asimova, F. (2023, 15 sentyabr). Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatining rivojlanish ko'rsatkichlari. SRT Journal, 1(1). <https://srt-journal.uz/ojs/index.php/SRT/article/view/25>
3. Azimov, S. (2022). Sanoat korxonalari raqamli iqtisodiyotdan foydalanish usullari. Sciedu, X(?). <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/download/5240/4816/10158>



4. Baxriddin, P. D. (2025). Raqamli va axborot texnologiyalari zamonaviy jamiyat iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi. IQRO. <https://inlibrary.uz/index.php/igro/article/view/72576>
5. Do'stmuhammedova, N., Yalgashov, U., & Jaylovov, S. (2025). O'zbekistonda buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o'rni. Journal of Universal Science Research, 3(1), 244–248. <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/download/64510/65506/82612>
6. Isroiljon, Q. S. (2022). Sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning xususiyatlari. Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar, 10(2). https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/Article_41_0.pdf
7. Olimov, O. O. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari. RAQAMLI IQTISODIYOT IlmiyElektron Jurnal, 11son. https://api.infocom.uz/api/v1/magazine/download-article?article_id=682
8. Tursunov, B. O. (2022). Sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi. Iqtisodiyot va ta'lim, 3. <https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0014/6.6.pdf>
9. Vahobov, A. V., Ishonqulov, N. F., & Ibrohimov, A. T. (2013). Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Toshkent: IqtisodMoliya.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
